

**MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI FAOLIYATINI
RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI**

*Sirdaryo viloyati Sayxun obod tumani
8-DMTT tarbiyachisi
Shakarova Shohsanam Shodiboy qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lismida zamonaviy o'qitish shakllari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, jumladan, bolalarning o'sishi hamda maktabgacha ta'lism bilan qamrab olinishi jarayonlarini monitoring qilish, ota-onalar tomonidan to`lanadigan badall pullari onlayn rejimda to'lash imkoniyati yaratilganligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: yangi tizim, axborot tizimi, bolalar bog`chasi, elektron to`lov, taomnoma, sog`lom ovqatlantirilish.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar barcha sohalarga va odamlar hayotiga jadal kirib boryabdi. Mamlakatimizda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish eng muhim vazifaga aylangan. Raqamlashtirish nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ayniqsa, vaqtini tejashda, zarur ma'lumotlarni tez va oson topishda qulay hisoblanadi. Bundan tashqari ortiqcha xarajatlarni, korrupsiyani keskin kamaytiradi. O'zbekiston o'z oldiga kuchli demokratik, ilg'or rivojlangan davlatlar safidan mustahkam o'rinnegi egallashni maqsad qilgan. Bu boradagi islohotlar esa xalqimizga munosib sharoit yaratib berish maqsadida amalga oshirilmoqda. "Bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faoliyat oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi. Shu bois ham kelgusi yillarda maktabgacha ta'lism sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz – ijtimoiy ahvoldidan qat'i nazar, bog'cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta'lism yo'nalishi bilan to'liq qamrab olish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat...". Tashkilotlarni raqamli o'zgartirish jarayoni - yangi axborot texnologiyalarining rivojlanishi va butun dunyo bo'y lab faol tarqalishiga javob hisoblanadi.

Prezidentimizning 2020 - yil 6 - noyabrdagi "Ta'limtarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida 2022 - yil 1 - yanvarga qadar maktabgacha ta'lismida zamonaviy o'qitish shakllari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, jumladan, bolalarning o'sishi hamda maktabgacha ta'lism bilan qamrab olinishi jarayonlarini monitoring qilish bo'yicha "Bolalar bog'chasi" axborot tizimini ishga tushirish va unga kiritiladigan ma'lumotlar shaffofligini ta'minlash belgilangan. Shuningdek, maktabgacha ta'lism xizmatlari uchun elektron to'lov _____ 10'zbekiston Respublikasi Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojatnomasi 29- dekabr 2020-yil. Tizimlarini joriy etish, sohada axborot tizimini

boshqa vazirlik va idoralarning axborot tizimlari bilan integratsiya qilish kabi vazifalar ham yuklatilgan. Maktabgacha ta'lism vazirligi tomonidan “Bolalar bog'chasi” axborot tizimi yordamida bolalarni maktabgacha ta'limga qamrab olishni monitoring qilish, yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı hamda Davlat xizmatlari agentligi bilan axborot tizimi integratsiyasi orqali bolalarni maktabgacha ta'lism tashkilotlariga navbatga qo'yish va qabul qilish uchun yo'llanma olish bo'yicha davlat xizmati ko'rsatiladi. Bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda, Maktabgacha ta'lism vazirligi MTT xodimlari va tarbiyalanuvchilarini zamonaviy raqamli texnologiyalarni qollagan holda avtomatik hisobga oladigan “Bolalar bog'chasi” axborot tizimini takomillashtirish loyihasini ishlab chiqdi.

Ushbu tizimni yo`lga qo`yish maqsadida respublikamizning bir nechta maktabgacha ta`lim tashkilotlari tajriba-sinov sifatida belgilandi. Buning uchun tashkilotlarda biometrik identifikatsiya qurilmalari o'rnatildi. Tajriba-sinovi muvoffaqiyatli amalga oshirildi. Tajriba-sinov natijalaridan kelib chiqqan holda, Maktabgacha ta'lism vazirligi boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda 2022 - yil 1 - iyunga qadar “Bolalar bog'chasi” tizimining takomillashtirilgan ko'rinishini yurtimizdagi barcha davlat maktabgacha ta'lism tashkilotlarida joriy etish rejalashtirildi va hozirgi kunda respublikamizdagi barcha MTT lar yangi tizim bo'yicha o`z faoliyatlarini amalga oshirilib kelmoqda. Yangi tizim orqali bolaning maktabgacha ta'lism tashkilotidagi har bir daqiqasi nazoratda bo'ladi. Xodimlarning ham har bir kuni, soatigacha ko'rsatilib boriladi. Agar MTTning biror xodimi ishdan vaqtli ketsa yoki sababsiz ishga kelmasa, ularning ish soati to'laqonli yozilmaydi. Bu esa, o'z navbatida, davomat masalasida kuzatilishi mumkin bo'lgan ba'zi ko'rinishdagi korruptsion holatlarga ijobiy yechim bo'lmoqda. Tizim ishga tushirilganiga ko`p bo`limgan bo`lsada o`z samarasini ko`rsatayotganini mutaxassislar ta`kitlab o'tishmoqda. Shuningdek, tizimda oziq-ovqat xarajatlarini avtomatik hisobga olish, tahlil o'tkazish va lavozimlar bo'yicha kadrlar etishmovchiliginani aniqlash maqsadida maktabgacha ta'lism tashkilotlarining kadrlar salohiyati haqidagi ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish mumkin. Mas'ullarning ta'kidlashicha, ushbu tizimga o'tilganidan so'ng tashkilotlardagi anchayin noqulayliklar bartaraf qilingan. Dastlab bu tizimni tushunib olish qiyinchilik tug'dirgan bo'lsa-da, hozirgi kunda qiyinchiliksiz foydalanilmoqda. Bu tizim nafaqat tarbiyalanuvchilar, balki xodimlarni ham tartib-intizomga o'rgatdi. Qolaversa, bolalarning salomatligini asrash, sog'lom ovqatlanishini ta'minlashda ham ahamiyati katta bo'lyapti. Ilgari bolalarning tana harorati tanometrda o'lchanardi. Hozirgi qurilma avtomatik ravishda bolaning tana haroratini ko'rsatadi va ota-onal bolasining sog'lomligiga ishonch hosil qilib, ko'ngli xotirjam holda keta oladi. Tana harorati 37 darajadan yuqori bola bog'chaga qabul qilinmaydi va otaonalarga davolanish bo'yicha ko'rsatma beriladi. Mazkur tizim MTTda oziq-ovqat xarajatlarini nazorat qilishda ham afzalliklarga ega. Oshxonada ovqat tayyorlash plitalari oldida

elektron tarozi qo'yilgan. Tarozi ko'rsatkichlarini ko'rish uchun qulay bo'lgan joyda internet tarmog'iga ulangan 3 ta kamera o'rnatilgan. Taomnoma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari bevosita qozonga solishdan avval majburiy tartibda elektron tarozida tortiladi. Biometrik identifikatsiya qilish joriy etilgani MTT xodimlari va tarbiyalanuvchilarining yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish, xodimlarning ish vaqt va tarbiyalanuvchilarining davomatini real vaqt rejimida monitoring qilish, MTTlarda oziq-ovqat xarajatlarini avtomatik hisobga olishni zamonaviy raqamli texnologiyalar orqali yuritish imkonini bermoqda. Bugungi kunda tajriba-sinov natijalaridan olingan xulosalar asosida uni yanada rivojlantirishga xizmat qiladigan loyihalar ustida ishlar olib borilmoqda. Loyiha doirasida Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan Respublika sanitariyaepidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati bilan kelishilgan holda, tasdiqlangan standart taomnoma asosida bolalarni ovqatlantirishga mo'ljallangan "Yagona mavsumiy taomnoma"ni joriy etish ko'zda tutilgan.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi faoliyatlarni amalga oshirishdan maqsad — maktabgacha ta'lim tizimini raqamlashtirish hisobiga mehnat resurslarini tejash, ish unumini oshirish hamda tizimning ochiq va shaffofligini ta'minlashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 1.<https://xs.uz>
2. <https://uz up wiki.one>.
3. Maktabgacha ta'lim vazirligining Mdo.uz saytidan olingan.
4. Khakimov, S. R., & Sharopov, B. K. (2023). Educational Quality Improvement Events Based on Exhibition Materials in Practical Training Lessons. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education*, 1(2), 5-10.
5. Хакимов, С. (2023). ПОВТОРНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОДЫ В АВТОМОЙКАХ ПУТИ МАРШРУТИЗАЦИИ. *TECHника*, (1 (10)), 1-5.
6. Хакимов, С., & Тургунбаева, М. (2023). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОПЫТА ЯПОНИИ, США И ГЕРМАНИИ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ. *TECHника*, (2 (11)), 17-19.
7. Кодирова, Ф., Хакимов, С., & Турғунбаева, М. (2023). ОСНОВНЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К СОВРЕМЕННЫМ ТЕПЛОИЗОЛЯЦИОННЫМ СТРОИТЕЛЬНЫМ МАТЕРИАЛАМ. *TECHника*, (2 (11)), 5-9.
8. Yuvmitov, A., & Hakimov, S. R. (2021). Influence of seismic isolation on the stress-strain state of buildings. *Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent*, 11(1), 71-79.
9. Шаропов, Б. X., Хакимов, С. Р., & Раҳимова, С. (2021). Оптимизация режимов гелиотеплохимической обработки золоцементных композиций. *Матрица научного познания*, (12-1), 115-123.

- 10.Ювмитов, А. С., & Хакимов, С. Р. (2020). ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ СЕЙСМОИЗОЛЯЦИИ НА ДИНАМИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЗДАНИЯ. *Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent*, 10(2), 14.
- 11.Xakimov, S., & Dadaxanov, F. (2022). STATE OF HEAT CONDUCTIVITY OF WALLS OF RESIDENTIAL BUILDINGS. *Science and innovation*, 1(C7), 223-226.
- 12.Yuldashev, S., & Xakimov, S. (2022). ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИДАН КЕЛИБ ЧИҚАДИГАН ТЕБРАНИШЛАР ҲАҚИДА. *Science and innovation*, 1(A5), 376-379
- 13.Хакимов, С. (2022). АКТИВ ВА ПАССИВ СЕЙСМИК УСУЛЛАРИ ҲАМДА УЛАРНИНГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(2), 30-36.
- 14.Хакимов, С., Шаропов, Б., & Абдуназаров, А. (2022). БИНО ВА ИНШООТЛАРНИНГ СЕЙСМИК МУСТАҲКАМЛИГИ БЎЙИЧА ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР (РОССИЯ, ЯПОНИЯ, ХИТОЙ, АҚШ) МЕЪЁРИЙ ХУЖЖАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 806-809.
- 15.Rasuljon o'g'li, K. S., & Muhammadjanovna, K. F. (2023). ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF USING STEEL REINFORCEMENTS AND COMPOSITE REINFORCEMENTS IN BUILDING STRUCTURES. *AMALIY VA FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR*, 2(6), 1-5.